ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Ataullayev J R

Qarshi davlat texnika unversiteti ass.o'qituvchi

"QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI VA EKINLARINI MONITORING QILISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH"

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi mulkchilik shakli, huquqiy rejimi, xususiyati va foydalanish muddatlaridan qati nazar, yer fondining barcha toifalaridagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda amalga oshirilishi hamda ular monitoring obyekti hisoblanishi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi O'zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi ushbu yerlarning tuproq, geobotanika va boshqa tadqiqotlar materiallaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekinlarni monitoring qilish orqali amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, ekin yerlar, yer monitoringi, raqamlashtirish, masofadan zondlash, davriy monitoring, joriy monitoring, tezkor monitoring.

Аннотация: В настоящей статье мониторинг земель сельскохозяйственного назначения и пахотных земель осуществляется по всем категориям земельного фонда независимо от формы собственности, правового режима, особенностей и условий использования, и они рассматриваются как объект мониторинга, сельскохозяйственного мониторинга земли и посевные площади для сельского хозяйства.Сведения о типах земель, площади, землевладельцах, землепользователях и арендаторах государственного земельного кадастра государственного земельного кадастра в Национальной геоинформационной системе Республики Узбекистан.на основе данных, мониторинг сельскохозяйственных угодий и посевов осуществляется с использованием почвенных, геоботанических и других материалов исследований этих земель, мониторинг сельскохозяйственных угодий и посевов.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, пашня, мониторинг земель, цифровизация, дистанционное зондирование, периодический мониторинг, текущий мониторинг, оперативный мониторинг.

Abstract: In this article, monitoring of agricultural land and arable land is carried out on all categories of the land fund, regardless of the form of ownership, legal regime, characteristics and terms of use, and they are considered the object of monitoring, agriculture monitoring of land and cultivated areas for agriculture. Information on land types, area, land owners, land users and tenants of the state land cadastre of the state land cadastre in the National Geographic Information System of the Republic of Uzbekistan. based on the data, monitoring of agricultural lands and crops is provided, using soil, geobotany and other research materials of these lands, monitoring of agricultural lands and crops.

Keywords: Agriculture, arable land, land monitoring, digitization, remote sensing, periodic monitoring, current monitoring, rapid monitoring.

Hozirgi kunda dunyoda aholi soni yildan yilga ko‘payishi va aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi ortishi kuzatilmoqada. Oziq-ovqat mahsulotlarini aksariyat qismi qishloq xo‘jaligi yerlaridan olinishi hech kimga sir emas. Bu esa yer resurslaridan samarali foydalanishni hamda doimiy nazorat qilishn taqozo etmoqda. Ma’lumki, yer atrof-muhitning muhim tarkibi sifatida o‘zining kenglik, relyef, iqlim, tuproq qatlami, o‘simliklari, yer osti boyliklari, suvlari bilan tavsiflanganligi holda qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi,shuningdek xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini joylashtirishning kenglik asosi bo‘lganligi sababliyer maydonlarini o‘rganish masalalari yagona davlat yondashuvini talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida yer maydonlarini tizimli hamda majmuali tarzda kuzatuvlar asosida nazoratni amalga oshirish zaruratini belgilaydi. Bunday tizimli nazoratni amalga oshirish mexanizmini yer monitoringi deb ta’kidlash mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda sohani isloh qilishda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini joriy etish, zamonaviy resurs tejovchi va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratilgan.Barcha sohalar qatori agrar sohani rivojlantirish ham nafaqat xalqimiz turmush sharoitini yaxshilash uchun xizmat qiladi, qolaversa eksport salohiyatimizni ham yanada oshib borishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali va oqilona foydalanishda yer monitoring muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda yer monitoringini yuritish bir nechta huquqiy va me’yoriy hujjatlar asosida olib boriladi. Xususan 2022-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 22-sonli qarori “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, qaroriga asosan:

qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringi — ekinlarni joylashtirish ko‘rsatkichlari asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydonlarni o‘lchash, shuningdek, ekin maydonlarida o‘tkaziladigan erga ishlov berish bilan bog‘liq agrotexnik tadbirlarning o‘z muddatlarida bajarilishi yuzasidan kuzatuv olib borish;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringi — mulkchilik shaklidan qat’i nazar, yer fondining barcha toifalaridagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda, jumladan, haydaladigan ekin yerlari, ko‘p yillik daraxtzorlar, bo‘z yerlar, pichanzor va yaylovlar, shuningdek, ularga xizmat qiluvchi boshqa yer turlarining (ariq, zovur, yo‘l va boshqalar) holati bo‘yicha kuzatuv tizimi (fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalari bundan mustasno);

Quyidagilar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ❖ qishloq ho‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning turlari bo‘yicha ularning maydoni va ushbu yerlardan foydalanish holati yuzasidan monitoring tizimini tashkil etish va amalga oshirish;
- ❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan belgilangan maqsadlarda foydalanilishini ta’minlash;
- ❖ yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish holatlarining oldini olish va aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli choralar ko‘rish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha vakolatli idoralarni axborot bilan ta’minlash.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlari davriyligi bo‘yicha quyidagicha amalga oshiriladi:

- davriy monitoring — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni turlari va maydoni bo‘yicha har besh yilda xatlovdan o‘tkazib borish;
- joriy monitoring — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish holati yuzasidan har yili monitoringni amalga oshirish;
- tezkor monitoring — qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekilishi va ularda erga ishlov berish bilan bog‘liq agrotexnik tadbirlarning o‘tkazilishi yuzasidan kunlik monitoringni amalga oshirish.

Bundan tashqari Prezidentning «Qishloq xo‘jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida e'lon qilindi. Unga muvofiq:

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekinlarni monitoring qilish yangi tizimini joriy etish, qishloq xo‘jaligi yerlari talon-toroj qilinishi oldini olish, yer tuzish, masofadan zondlash va raqamlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish, moddiy-texnika bazani mustahkamlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash, xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish maqsad qilingan.

Qishloq xo‘jaligi vazirligida qishloq xo‘jaligi yerlari to‘g‘risidagi geoportal tizimi tashkil etilgan va quyidagilar ushbu portalda tizimli yuritilishi ta'minlanadi:

- qishloq xo‘jaligi yerlari va ulardan foydalanuvchilar konturlar kesimida ekinlarni joylashtirish ko‘rsatkichlari;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilishi yuzasidan monitoring ko‘rsatkichlari;
- qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringi natijasida aniqlangan yer qonunbuzilish holatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar;
- qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorlik xossa-xususiyatlari (ball boniteti) va normativ qiymati ko‘rsatkichlari.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida tuproq va o‘simliklar qoplamining holatini kuzatish, baholash va bashorat qilish, zarur holatlarda yong‘in markazlarini aniqlash uchun sun’iy yo‘ldosh kuzatuvlarining ko‘p turlari qo‘llanilmoqda. Shuningdek zararkunandalarga qarshi kurashda ham masofadan turib zondlash ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Sun’iy yo‘ldosh monitoring qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, qishloq xo‘jaligi ekinlarining prognozi va qishloq xo‘jaligining turli sohalaridagi boshqa vazifalarini tezkor nazorat qilishni ta’minlaydi. Agrosanoat majmuasini onlayn rejimida rejalashtirish, monitoring qilish va boshqarish bo‘yicha sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini avtomatlashtirilgan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish uchun agrosanoat majmuasining qishloq xo‘jaligi yerlarini masofadan kuzatib borish tizimini yaratish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Yerlarning davlat monitoringini takomillashtirish sohasidagi asosiy vazifalardan biri bu barcha qishloq xo‘jaligi yerlarining samarali davlat monitoringi tizimini yaratish va yagona ma’lumotlar banki shaklida xususan Qishloq xo‘jaligi vazirligi bazasida davlat axborot resurslarini shakllantirish hisoblanadi. Bu esa aniq ma’lumotlarni jamlashga imkon beradi, buning asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni samarali rejalashtirish, shuningdek mablag‘larning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringini rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda monitoringning samarali ishlashini ta’minlash uchun yangi vositalar va texnologiyalar joriy qilinmoqda, shu jumladan masofaviy zondlash eng xolis va tezkor bir vaqtning o‘zida olingan tasvirlar asosida

ma’lumotlarni kuzatish, yig‘ish va qayta ishlash tizimlari, yerdan foydalanishni, ekinlarning joylashishi va hosilning potensial hajmini taxmin qilish imkonini beradigan dastur hisoblanadi.

Yerning su’niy yo‘ldosh orqali kuzatilishi tuproqlarning holatini, unumdorligini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni bashorat qilish va boshqarish uchun asos bo‘lib, jamiyat va umuman biosferaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov A.A, Ishmurodova S.Sh (2024). Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda qishloq xo’jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish. Technical science research in Uzbekistan 2 (2) 161-165-b
2. S.Avezbayev,S.N.Volkov Yer tuzishni loyihalash “O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashryoti” Toshkent-2006.
3. R.A.Turayev,R.N.Sharopov Lalmi yerlar monitoring “Lesson Press” Toshkent-2023
4. R.A.Turayev Yer monitoring “Lesson Press” Toshkent-2022
5. Lex.uz, Ziyonet.uz